

## FIRIBGARLIK JINOYATI VA UNING PROFILAKTIKASI

*Rixsitillayev Saidiskandar Doniyorhoji o'g'li*  
*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada muallif tomonidan firibgarlik jinoyati tushunchasi, uning ayrim o'ziga xos jihatlari xususida umumiy tavsif berilgan. Bundan tashqari, firibgarlik jinoyati tarkibi elementlari tahlili amalga oshirilgan. Muallif mazkur jinoyatni sodir etish usullari uning kvalifikatsiyasiga ta'sir etishi haqida ham to'xtalgan. Jumladan, hujjatlarni qalbakilashtirish orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatini kvalifikatsiya qilish masalalarini yoritgan. Shuningdek, mazkur mavzuda tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlarini o'rganib, firibgarlikning jinoyat-huquqiy tavsifini bayon qilgan.

**Kalit so'zlar:** firibgarlik, o'zganing mulki, talon-toroj qilish, aldash, ishonchni suiiste'mol qilish, faol aldash, nofaol aldash.

## ПРЕСТУПЛЕНИЕ МОШЕННИЧЕСТВА И ЕГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ

**Аннотация:** В данной статье автор дает общее описание понятия преступления, связанного с мошенничеством, некоторых его особенностей. Кроме того, был проведен анализ элементов состава преступления, связанного с мошенничеством. Автор также коснулся того факта, что способы совершения этого преступления влияют на его квалификацию. В частности, в нем рассматривались вопросы количественной оценки преступления мошенничества, совершенного путем подделки документов. Он также изучил мнения ученых, которые проводили исследования на эту тему, и описал уголовно-правовую характеристику мошенничества.

**Ключевые слова:** мошенничество, чужое имущество, хищение, обман, злоупотребление доверием, активный обман, пассивный обман.

## THE CRIME OF FRAUD AND ITS PREVENTION

**Abstract:** In this article, the author gives a general description of the concept of a crime related to fraud, some of its features. In addition, an analysis of the elements of the crime related to fraud was carried out. The author also touched upon the fact that the methods of committing this crime affect his qualifications. In particular, it addressed the issues of quantification of the crime of fraud committed by forgery of documents. He also studied the opinions of scientists who conducted research on this topic, and described the criminal and legal characteristics of fraud.

**Key words:** fraud, other people's property, robbery, deception, abuse of trust, active deception, passive deception.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, mazkur normaga ko‘ra, firibgarlik, ya‘ni aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritishda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 iyuldagi «Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 8-sonli qarorining 3-bandida firibgarlikka quyidagicha ta‘rif berilgan: «Firibgarlik o‘zganing mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan haq to‘lamay egallashda ifodalanib, buning ta‘sirida mulk egasi yoki boshqa shaxs yoxud vakolatli hokimiyat organi mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga beradi yoki ushbu mulk yoki unga bo‘lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo‘yilishiga imkoniyat beradi».

Firibgarlikda yolg‘on ma‘lumotlar bilan jabrlanuvchini aldanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday holat, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati (masalan, aybdor shaxs o‘zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organning xodimi sifatida ko‘rsatishi) taalluqli bo‘lishi mumkin.

Ushbu jinoyat orqali jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to‘lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni o‘ynash chog‘ida aldov usullarini qo‘llash kabilar kiradi .

Kriminologik tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlarning tadqiqotlarida, firibgarlikning har 10 tasidan 8 tasining sodir bo‘lish mexanizmida jabrlanuvchining xulqi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligini kuzatilgan. Jinoyatchilar jabrlanuvchining soddaligi, ishonuvchanligi, muayyan narsaga muhtojligi va hokazolarni e‘tiborga oladilar.

Firibgarlikning 24 foizida oldindan har ikki tomon o‘rtasida ijtimoiy aloqalar bo‘lgan, 20 foizida vaqtincha aloqalar o‘rnatilgan, 56 foizida esa firibgar va jabrlanuvchi o‘rtasida tasodifiy aloqalar bo‘lgan.

Firibgarlik jinoyatlari ko‘p xollarda jabrlanuvchining, ba‘zi xollarda firibgarning uyida sodir etiladi. Jinoyatchining kelajakda qilmishi fosh bo‘lishini xohlamasligi va unda jinoyat fosh bo‘lishining oldini olish maqsadining borligi, turli kelishuvlarni maxfiylik qolishini xohlashi bilan bog‘liqdir . Firibgarlikda jinoiy natijaning kelib chiqishiga jinoyatchining jabrlanuvchiga ta‘sir qilish usuli muhim ahamiyatga ega bo‘lib qoladi. Jumladan, nomusga tegish jinoyatida jismoniy kuch ishlatish yoki juda bo‘lmaganda jabrlanuvchining alkogolli ichimlik yoki uxlatib qo‘yuvchi vosita orqali qarshilik qilish imkoniyatidan mahrum qilib qo‘yilsa, firibgarlikda jinoyatchining niyati va harakatlari yashirin holatda bo‘ladi (masalan, aldov, ishonchni suiiste‘mol qilish, va hokazo).

Huquqshunos olim Q.R. Abdurasulova o'z tadqiqotlarida firibgarlikning 44 foizi aldov yo'li bilan, 45,4 foizi ishonchni suiiste'mol qilish orqali sodir etilishini ta'kidlaydi. Firibgarlikda, hatto jabrlanuvchilarning yarmidan ko'prog'i firibgar bilan kelishilganligini yashirishga harakat qiladi, chunki jabrlanuvchi sirning fosh bo'lishini xohlamaydi. Firibgarlikning 56,5 foizi hech kimga aytilmaydi, faqat 10 foizigina oila a'zolari va tanish-bilishlariga, 31,5 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lum bo'ladi.

Fuqarolarning har qanday mulkiy hukuqining buzilishini oldini olish maqsadida firibgarlik jinoyatiga qarshi kurashish, bu turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish masalalariga e'tiborni yanada kuchaytirish davr talabidir. Bu esa o'z navbatida, tegishli tartibda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi chora tadbirlarini o'z vaqtida samarali tashkil etishni talab etadi. Shuningdek, hukuqiy ta'sir choralari ko'rish, ya'ni jinoyat qonuni normalarini ko'llashni taqozo etadi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari, jumldan hududiy profilaktika (katta) inspektorlarining har qanday ko'rinisdagi huquqbuzarliklarning, shu jumladan firibgarlik jinoyatining profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha muayayn vakolatlari qonun bilan tartibga solingan. Hududiy profilaktika inspektorlari shuningdek, ichki ishlar organlarining boshqa soxaviy xizmatlari tomonidan firibgarlikning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarga qaramay mazkur jinoyatning suratini keskin kamaymayapti. Statistik ma'lumotlar tahlillarga ko'ra, 2019 yilda Respublikamizda umumiy jinoyatchilikning 8,1%ni, 2020 yilda 8,8%ni firibgarlik jinoyati tashkil etib, 0,7%ga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Firibgarlik jinoyatining iqtisodiy jinoyatlardagi ulushi 2021 yilda 38,6%ni, 2022 yilda esa 45,6%ni tashkil etib, 7%ga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu turdagi jinoyatlar bo'yicha tergovdan to'xtatib qo'yilgan jinoyat ishlari va ochilmagan jinoyatlarning soni yildan yilga ko'payib bormoqda.

Yuqoridagi tahlillardan bir necha turdagi omillarni, jumladan, birinchi Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan firibgarlik va u bilan bog'liq jinoyatlarning profilaktikasi yetarli darajada amalga oshirmasligi, ikkinchidan mazkur jarayonda ayniqsa, profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlarining boshqa soxaviy xizmatlari jumladan, tergov, tezkor-qidiruv va boshqa soxaviy xizmatlar, shuningdek keng jamoatchilik bilan faol hamkorlikni yanada kuchaytirish lozim.

Bugungi kunda profilaktika xizmatlari, shu jumladan profilaktika inspektorlari firibgarlik jinoyatining oldini olishga doir quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq:

-mamlakatdagi, ayrim mintaqalardagi, tumanlar va shaharlardagi kriminogen vaziyatni o'rganish hamda mavjud kuchlar va vositalardan firibgarlik jinoyatining

oldini olishga hamda ularni bartaraf etishda foydalanilishi samaradorligi tahlilini amalga oshirish;

-huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda firibgarlik va u bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

-firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxslar va firibgarlik jinoyatidan jabrlanuvchilarning hisobini yuritish hamda mazkur ma‘lumotlarning tahlilini doimiy ravishda amalga oshirib borish, zarur xollarda firibgarlikdan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asosan ilgari sodir etgan firibgarlik jinoyati uchun sudlanib jazoni o‘tab chiqqan shaxslarni profilaktik hisobga olish hamda ular bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy mazmundagi profilaktik ishlarni kuchaytirish;

-pasport-viza rejimi fuqarolarni rioya etishlarini tekshirish jarayonida firibgarlik to‘g‘risidagi fuqarolar tomonidan bildirilgan ma‘lumotlarni, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini qabul qilishda firibgarlik jinoyati va ularni sodir etgan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni doimiy ravishda o‘rganib taxlil qilib borish;

-firibgarlik bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etishda hamda bu turdagi jinoyat sodir etib tergovga, sudga kelishdan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan, qidiruvdagi shaxslarni aniqlashda ichki ishlar organlarining boshqa soxa xizmatlari, shu jumladan JQ va UJQKB bilan hamkorlikni kuchaytirish;

-ilgari firibgarlik jinoyatini sodir etib jazoni o‘tab chiqqan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko‘radi;

-firibgarlik jinoyatining profilaktikasini amalga oshirishda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik kuchaytirish.

Yuqorida ta’kidlangan tashkiliy va huquqiy tadbirlarni amalga oshirishda profilaktika xizmatlari tizimi imkoniyatlarini to‘liq ishga solgan holda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda aholi faolligini oshirish firibgarlik va boshqa turdagi jinoyatlarning oldini olishda albatta, o‘z samarasini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Муаллифлар жамоаси. Жиноят ҳуқуқи(Махсус қисм) ИИБ Академияси. Т.:2016.
2. Таганцев Н.С. Уложение о наказаниях уголовных и исполнительных 1885 г. СПб, 1906. С.867.

3. Абдурасулова Қ.П. Фирибгарликнинг жиноят ҳуқуқий муаммолари. Юрид.фа.номзоди...дисс. –Тошкент: 1996. -14б.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 2009 йил 24 июль 8-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (2006–2014 йиллар). – Т., 2014. – Б. 183.

5. Уголовное право. Особенная часть : учебник для вузов / под общ. ред. Л.М. Прокументова. – Томск : Издательский Дом Томского государственного университета, 2019. – 159 (844) с.

6. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 66 bet (529 bet).

7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Жиноий ҳаракатлар оқибатида етказилган моддий зарарни қоплаш масаласига доир суд амалиёти тўғрисида»ги 1998 йил 11 сентябрь 21-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Биринчи жилд. – Т., 2007. – Б. 172